

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**TO‘YMURODOV ABDURAXMON SHUHRAT O‘G‘LI**

**AHOLIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISH MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH  
(harbiy xizmatchilar oilalari misolida)**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the  
Psychological Sciences**

**To'ymurodov Abduraxmon Shuhrat o'g'li**

Aholiga psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish (harbiy xizmatchilar oilalari misolida).....3

**Туймуродов Абдурахмон Шухрат угли**

Совершенствование механизмов оказания психологических служб населению (на примере семей военнослужащих).....23

**Tuymurodov Abduraxmon Shuxrat ugli**

Improvement of mechanisms for providing psychological services to the population (in the case of military families).....45

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**TO‘YMURODOV ABDURAXMON SHUHRAT O‘G‘LI**

**AHOLIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISH MEXANIZMLARINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**  
**(harbiy xizmatchilar oilalari misolida)**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/P721 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Avezov Olmos Ravshanovich**  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


**Rasmiy opponentlar:** **Safarov Dilmurod Xalimovich**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
**G'aybullayev A'zam Axadovich**  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.P.08.10 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «4» *aprel* soat *14<sup>30</sup>* dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14; faks: (+0365) 221-27-57; email: buxdu.rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. *D/356* raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «16» *Mart* kuni tarqatildi.  
(2026-yil «16» *Mart* dagi *2* - raqamli reyestr bayonnomasi).



**A.M. Nazarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

**Sh.Sh. Rustamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc),  
dotsent

**A.A. Xuseynova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotasiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish, migratsiya jarayonlari hamda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sharoitida harbiy xizmatchilar oilalariga psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, xizmat faoliyati bilan bog'liq yuqori stress omillari harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarida ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarning keng tarqalishiga sabab bo'lib, bunday muammolar dunyo bo'yicha 1 milliarddan ortiq aholi qatlamida kuzatilishi qayd etilgan. AQSh Mudofaa vazirligi (Department of Defense) hisobotlarida harbiy xizmatchilar turmush o'rtoqlarining qariyb 36 foizida surunkali stress va moslashuvdagi qiyinchiliklar aniqlangan. Shuningdek, harbiy xizmatchilar oilalaridagi bolalarning qariyb 30 foizi ajralish jarayonida emotsional beqarorlik holatlarini boshdan kechirishi ta'kidlangan. Mazkur statistik ko'rsatkichlar harbiy xizmatchilar oilalariga yo'naltirilgan psixologik xizmat tizimini ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda<sup>1</sup>.

Jahonning ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida o'tkazilgan izlanishlarda harbiy xizmat sharoitining oila tizimiga ko'rsatadigan psixologik ta'siri kompleks xarakterga ega ekanligi aniqlangan. Xususan, Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi (APA) hamda Harvard University qoshidagi tadqiqot markazlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda harbiy xizmatchilar oilalarida moslashuv buzilishlari va tashvish darajasi fuqarolik oilalariga nisbatan o'rtacha 25-40 foizga yuqori ekanligi aniqlangan. UNICEF hamda xalqaro ijtimoiy himoya tashkilotlari hisobotlarida esa mojaroli hududlarda yashovchi oilalardagi bolalarning 60 foizdan ortig'i psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj ekanligi ta'kidlangan. Bunday natijalar psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida individual maslahat, oilaviy terapiya, profilaktik dasturlar hamda raqamli maslahat platformalarini integratsiyalashgan yondashuv asosida qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Shu bois harbiy xizmatchilar oilalariga psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmlarini tizimli ravishda takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda<sup>2</sup>.

Respublikamizda so'nggi yillarda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash hamda ma'naviy-ruhiy barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi»da harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Harbiy qismlar huzurida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish, oila a'zolari bilan ishlashning samarali mexanizmlarini joriy etish hamda profilaktik va korreksion dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

---

<sup>1</sup> <https://www.usa.gov/agencies/u-s-department-of-defense>

<sup>2</sup> <https://www.hillel.org/>

Mazkur jarayonlar harbiy xizmatchilar oilalariga psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ularning ruhiy barqarorligini mustahkamlash hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun zarur nazariy va amaliy asos yaratmoqda<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi O'RQ-989-son «Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son «O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlar, 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4190-son «2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Qarori, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimiz psixolog olimlaridan A.R.Abdurasulov, Z.Sh.Alimardonov, O.R.Avezov, Sh.R.Baratov, D.Sh.Baratova, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, N.G'.Kamilova, Z.T.Nishanova, N.S.Safoyev, R.S.Samarov, E.G'.G'oziyev, A.A.Ergashev va boshqalar psixologik xizmat ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslarini o'rganishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan Y.P.Ilin, M.A.Kotik, D.A.Leontev, V.L.Marishuk, A.S.Puni, A.B.Petrovskiy, L.R.Pravdina, S.L.Rubinshteyn, A.M.Stolyarenko, V.F.Sopov, N.B.Stambulova, V.N.Tomalinsev I.P.Volkov, L.S.Vigoskiy, Y.L.Xanin, R.M.Zagaynov va boshqalar zamonaviy tadqiqotlarida aholiga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Xorijiy olimlardan A.Adler, E.Bern, A.Freyd, E.Fromm, Z.Freyd, A.Lazarus, A.Louen, D.Mayers, F.Perlz, R.Plutchik, K.Rodgers, G.Selye, K.Xornilarning olib borilgan ilmiy izlanishlarida psixologik xizmat ko'rsatish to'g'risida sharhlar berilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-202005236-raqamli «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** aholiga psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmlarini

---

<sup>3</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot ishining vazifalari:**

harbiy xizmatchilarning oilalariga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish;

harbiy xizmatchilar oilalaridagi emotsional barqarorlik, moslashuvchanlik hamda stressni boshqarish omillarining ahamiyatini ochib berish;

harbiy xizmatchilarning oilasiga psixologik xizmat ko'rsatishda emotsional holatlarda o'zini-o'zi nazorat qilish omillarini ahamiyatini tahlil qilish;

aholiga psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida aholiga psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish belgilangan bo'lib, Buxoro viloyatidan 45 nafar, Qashqadaryo viloyatidan 30 nafar hamda Samarqand viloyatidan 25 nafar, jami 100 nafar xarbiy xizmatchilarning oilalari respondent sifatida jalb etildi.

**Tadqiqot predmetini** harbiy xizmatchilarning oilalariga psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, test, anketa, kontent-tahlil metodlaridan, shuningdek, R.Plutchik va G.Kellermannning «Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari» metodikasi, G.S.Nikiforov, V.K.Vasilev va S.V.Firsovalarning «Emotsional holatlarda o'zini o'zi nazorat qilishni namoyon bo'lishini o'rganish metodikasi» Derogatisning «Psixologik salomatlik omillarining namoyon bo'lishi» metodikasi hamda hammualliflikda (O.R.Avezov, A.Sh.To'yurodov) «Aholi xizmatchi oilalarining psixologik holatini aniqlash» so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

aholiga psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida xizmat vazifasini bajarishdagi ijtimoiy moslashuvchanlik va stressni boshqarish ko'nikmalarini oiladagi shaxslararo munosabatlar dinamikasiga ta'siri tufayli oilaviy krizisli intervensiya orqali madaniy adaptiv xususiyatlarni ijobiy barqarorlashtirish muhimligi aniqlangan;

harbiylarning oilalariga manzilli psixologik xizmat ko'rsatishda individual, oilaviy, psixoprofilaktik mexanizmlarni psixoeduktiv seanslar asosida uyg'un qo'llash muhimligiga ko'ra, faoliyatda o'zini o'zi nazorat qilish xususiyatini emotsional barqarorlik bilan integrativ namoyon bo'lishi orqali stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligi aniqlangan;

harbiy xizmatchi oilalarning psixologik holati ijtimoiy adaptatsiyadagi emotsional barqarorlik inkor etish, kompensatsiya va kognitivlik, stressni boshqarishga oid himoya mexanizmlarini ta'sirida namoyon bo'lishiga asoslanib psixologik funksional faoliyat orqali individual moslashuv darajasiga identiv ifodalanishi aniqlangan;

harbiy oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishda oilaviy munosabatlarni shaxs emotsional holatidagi stressga bardoshlilik orqali barqarorlashtirish muhimligiga

ko'ra, ijtimoiy psixokognitiv resurslarni kauzal atributsiya asosida konstruktiv konfrontatsiyaga bog'liq reflektiv faollashtirish zarurligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

harbiy xizmatchilarning oilalariga psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmlarini o'rganishga oid metodikalar tizimlashtirilgan;

harbiy xizmatchilarning oilalariga psixologik xizmat ko'rsatishda psixologik salomatlik omillarining o'rni tahlil qilingan;

harbiy xizmatchilarning oilalariga psixologik xizmat ko'rsatishga oid psixologik treninglar majmui ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati harbiy xizmatchilar oilalarga psixologik xizmat ko'rsatish omillari, shaxs xususiyatlari, fenomeni tahlili va ularning o'ziga xos jihatlarini ifodalovchi mexanizmlarning psixologik mazmuni, mohiyati tavsiflangan ilmiy xulosalardan ijtimoiy psixologiya yo'nalishlaridagi ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan nazariy materiallar va tavsiyalar harbiy oilalarga psixologik xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi, olingan natijalar va ilgari surilgan g'oyalar psixologlar va aholi o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni shakllanishini tadqiq qiluvchi metodikalardan foydalanishda, ular bilan olib boriladigan psixologik va psixokonsultativ ishlar yo'nalishini aniqlashtirishda, shuningdek, «Ekstremal vaziyatlar psixologiyasi», «Psixologik xizmat» fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** «Aholiga psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish (harbiy xizmatchilar oilalari misolida)» mavzusi bo'yicha erishilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

aholiga psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida xizmat vazifasini bajarishdagi ijtimoiy moslashuvchanlik va stressni boshqarish ko'nikmalarini oiladagi shaxslararo munosabatlar dinamikasiga ta'siri tufayli oilaviy krizisli intervensiya orqali madaniy adaptiv xususiyatlarni ijobiy barqarorlashtirish muhimligi aniqlanganligiga oid xulosa va tavsiyalar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 3-maydagi PM-130-sonli buyrug'iga asosan «psixologik xizmat» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-maydagi PM-130-a-son

ma'lumotnomasi). Natijada aholiga psixologik xizmat ko'rsatish modelini ishlab chiqilgan;

harbiylarning oilalariga manzilli psixologik xizmat ko'rsatishda individual, oilaviy, psixoprofilaktik mexanizmlarni psixoeduktiv seanslar asosida uyg'un qo'llash muhimligiga ko'ra, faoliyatda o'zini o'zi nazorat qilish xususiyatini emotsional barqarorlik bilan integrativ namoyon bo'lishi orqali stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligi aniqlanganligi haqidagi ilmiy xulosalar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023-yil 3-maydagi PM-130-a-son buyrug'iga asosan «Psixologik xizmat» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-maydagi PM-130-a-son ma'lumotnomasi). Natijada aholiga psixologik zo'riqishlarning kelib chiqishiga ko'ra, inqirozli vaziyatlarda shaxs emotsional sohasida stress bardoshlilikning tafovutli strategiyalarini namoyon bo'lishi aniqlangan;

harbiy xizmatchi oilalarning psixologik holati ijtimoiy adaptasiyadagi emotsional barqarorlik inkor etish, kompensatsiya va kognitivlik, stressni boshqarishga oid himoya mexanizmlarini ta'sirida namoyon bo'lishiga asoslanib psixologik funksional faoliyat orqali individual moslashuv darajasiga identiv ifodalanishi aniqlanganligiga ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 3-maydagi PM-130-sonli buyrug'iga asosan «Psixokorreksiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-maydagi PM-130-a-son ma'lumotnomasi). Natijada aholiga psixologik xizmat ko'rsatishning psixologik mexanizmlari takomillashtirilgan;

harbiy oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishda oilaviy munosabatlarni shaxs emotsional holatidagi stressga bardoshlilik orqali barqarorlashtirish muhimligiga ko'ra, ijtimoiy psixokognitiv resurslarni kauzal atributsiya asosida konstruktiv konfrontatsiyaga bog'liq reflektiv faollashtirish zarurligi dalillanganligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 3 maydagi PM-130-sonli buyrug'iga asosan «Favqulodda vaziyatlar psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-maydagi PM-130-a-son ma'lumotnomasi). Natijada aholiga psixologik xizmat ko'rsatishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, shundan 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan hamda muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Aholiga psixologik xizmat ko'rsatishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida aholiga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, psixologik xizmat ko'rsatish muammosini o'rganishning ilmiy-amaliy jihatlari tamoyillari bilan bog'liq tahliliy sharhlar keltirilgan.

Xorij olimlaridan D.Kolb, H.Gardner, J.Piage, B.Bloom, A.Bandura, E.Erikson va boshqalarning tadqiqotlarida psixologik xizmat ko'rsatish, harbiylar faoliyatida tajriba va amaliyot integratsiyasiga doir ma'lumotlar tizimlashtirilgan.

MDH olimlaridan B.G.Ananov, G.M.Andreeva, L.I.Bojovich, I.V.Dubrovina, V.V.Davidov, N.S.Leytes, A.E.Lichko va boshqa olimlar harbiylarga psixologik xizmat ko'rsatish hamda unga ta'sir qiluvchi mexanizmlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

O'zbekistonda psixolog olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarida shaxsda kechadigan stress, uni keltirib chiqaruvchi stressorlar va unga ta'sir etuvchi omillar masalalariga alohida e'tibor berilgan. Xususan, V.Karimova, Sh.Abdullayeva, M.Davletshin, N.S.Safoyev, R.S.Samarov, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida psixologik xizmat ko'rsatish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Aholiga psixologik xizmat ko'rsatishning empirik tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va korrelyatsion bog'lanishlar o'z aksini topgan.

Dastlab, «Harbiy xizmatchi oilalarining psixologik holatini aniqlash» so'rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga e'tiborimizni qaratamiz.

**1-jadval.**

**«Harbiy xizmatchi oilalarining psixologik holatini aniqlash» so'rovnomasi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=100)**

Shkalalar nomi	O'rtacha(M)		Farqlar
	Besh yildan ortiq safarda bo'lgan	O'n yildan ortiq safarda bo'lgan	t

	<b>harbiylar oilalari</b> <b>n<sub>1</sub>=40</b>	<b>harbiylar oilalari</b> <b>n<sub>2</sub>=60</b>	
Emotsional barqarorlik	2,5	4,7	-2,5*
Moslashuvchanlik	2,7	4,5	-2,6*
Stressni boshqarish	4,4	2,1	-2,4*

«Harbiy xizmatchi oilalarining psixologik holatini aniqlash» so‘rovnomasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlil qilindi. Jumladan, «emotsional barqarorlik» ( $t=-2,5$ ;  $p\leq 0,05$ ), «moslashuvchanlik» ( $t=-2,6$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda «stressni boshqarish» ( $t=-2,4$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillarida ishonchi farqlar kuzatildi.

Metodikamizning dastlabki «emotsional barqarorlik» omiliga ko‘ra, o‘n yildan ortiq safarda bo‘lgan harbiylar oilalarida yuqori natijalar kuzatildi ( $t=-2,5$ ;  $p\leq 0,05$ ). Aniqlangan statistik tafovutlar mazkur omilning harbiy xizmat davomiyligi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib, uzoq muddatli safar sharoitida ichki affektiv nazorat mexanizmlarining nisbatan shakllanganligini tasdiqlaydi. Bunday sharoitda yashash tajribasi oilaviy tizimda hissiy reaksiyalarni tartibga solishga qaratilgan kompensator strategiyalarning rivojlanishiga olib keladi. Mazkur guruhda tashqi xavf omillariga nisbatan sezgirlikning pasayishi kuzatilgan bo‘lsa-da, bu holat befarqlik emas, balki emotsional javoblarni ongli boshqarish orqali yuzaga kelgan barqarorlik sifatida namoyon bo‘ladi. Uzoq safar sharoiti oilaviy rollarning qayta taqsimlanishini taqozo etib, turmush o‘rtog‘ining psixologik mustaqilligini oshiradi hamda affektiv qaramlikni kamaytiradi. Shuningdek, xavotir reaksiyalarining muvozanatlashuvi psixologik xizmatdan foydalanish motivatsiyasiga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Emotsional barqarorlik oilaviy nizolarni kamaytirish bilan emas, balki ularga nisbatan konstruktiv munosabat shakllanishi bilan tavsiflanadi. Uzoq muddatli xizmat omili ichki resurslarning safarbar etilishiga olib kelib, affektiv zo‘riqishlarning refleksiya orqali qayta ishlanishini ta‘minlaydi. Mazkur guruhda psixologik xizmat mexanizmlarining individual yondashuv bilan uyg‘unlashuvi emotsional barqarorlikning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Hissiy o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanganligi farzandlar bilan muloqot sifatiga ijobiy ta‘sir etib, oilaviy muhitning psixogigiye holatini barqarorlashtiradi. Uzoq muddatli safar tajribasiga ega oilalarda krizisli vaziyatlarga moslashuv tezligi yuqori bo‘lib, bu ichki nazorat lokusining shakllanganligi bilan izohlanadi. Emotsional barqarorlikning ortishi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslaridan samarali foydalanish bilan hamohang kechadi. Mazkur natijalar psixologik xizmat ko‘rsatish mexanizmlarini differensial va individual yondashuv asosida tashkil etish zarurligini asoslaydi.

Navbatdagi «moslashuvchanlik» omili bo‘yicha o‘n yildan ortiq safarda bo‘lgan harbiylar oilalarida ijobiy natijalar aniqlandi ( $t=-2,6$ ;  $p\leq 0,05$ ). Tadqiqot natijalari moslashuvchanlikning shakllanishi harbiy xizmat davomiyligi bilan tizimli ravishda bog‘liqligini ko‘rsatib, uzoq muddatli safar tajribasiga ega oilalarda ijtimoiy va psixologik o‘zgarishlarga nisbatan yuqori darajadagi plastiklik mavjudligini tasdiqlaydi. Mazkur guruhda yangi vaziyatlarga moslashish jarayoni qisqa muddatda amalga oshishi avvalgi tajriba asosida shakllangan kognitiv sxemalar bilan izohlanadi. Uzoq muddatli ajralish sharoiti oilaviy rollarning qayta taqsimlanishiga olib kelib, vazifaviy moslashuv mexanizmlarining

barqarorlashuvini ta'minlaydi. Moslashuvchanlik ijtimoiy o'zgarishlarga qarshilik sifatida emas, balki konstruktiv integratsiya orqali namoyon bo'ladi hamda noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish tezligini oshiradi. Shuningdek, moslashuvchanlikning yuqori darajasi ijtimoiy rol o'zgarishlarini krizis emas, balki rivojlanish bosqichi sifatida qabul qilishga imkon beradi va tashqi tizimlar bilan o'zaro aloqani soddalashtiradi. Uzoq muddatli xizmat ta'sirida shakllangan psixologik elastiklik nizoli vaziyatlarda konstruktiv strategiyalarni tanlashga yordam beradi hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash manbalaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Moslashuvchanlikning rivojlanishi farzandlar tarbiyasida refleksiv yondashuvni kuchaytirib, oilaning ichki kommunikativ tizimini takomillashtiradi. Mazkur natijalar psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida differensial va segmentatsiyalangan yondashuvni qo'llash zarurligini asoslaydi. Moslashuvchanlikning tizimli xususiyati harbiy oilalarning uzoq muddatli ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Metodikamizning so'nggi «stressni boshqarish» omili bo'yicha besh yildan ortiq safarda bo'lgan harbiylar oilalarida yuqori natijalar qayd etildi ( $t=-2,4$ ;  $p\leq 0,05$ ). Empirik ma'lumotlar ushbu qatlamda stressni boshqarish darajasi yuqoriroq ekanligini ko'rsatib, zo'riqish holatlariga nisbatan ongli regulyatsiya strategiyalarining shakllanganligini tasdiqlaydi. Mazkur guruhda stressorlarni baholash jarayoni affektiv impulslar emas, balki kognitiv tahlil asosida amalga oshadi. Uzoq muddatli xizmat tajribasi oilaviy tizimda adaptiv koping mexanizmlarining shakllanishiga olib kelib, zo'riqishlarga nisbatan tolerantlikni oshiradi hamda qaror qabul qilishning ratsional modelini ustuvorlashtiradi. Shuningdek, ijtimoiy yordam izlash strategiyasining faolligi hamda relaksatsion va o'zini o'zi regulyatsiya qilish usullarining qo'llanishi stressni konstruktiv qayta ishlashni ta'minlaydi. Bu esa oilaviy muloqot sifatining yaxshilanishi va destruktiv xatti-harakatlarning kamayishi bilan namoyon bo'ladi. Stressni boshqarish ko'nikmalarining rivojlanganligi farzandlar bilan o'zaro munosabatlarga ham ijobiy ta'sir etib, emotsional zo'riqishlarning uzoq davom etmasligini ta'minlaydi. Mazkur natijalar psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmlarini individual ehtiyojlar asosida va profilaktik yo'nalishda tashkil etish zarurligini asoslaydi.

## 2-jadval.

**«Harbiy xizmatchi oilalarining psixologik holatini aniqlash» so'rovnomasi hamda Derogatisning «Psixologik salomatlik omillarining namoyon bo'lishi» metodikasi omillari o'rtasidagi aloqadorlik (n=100)**

<b>Omillar</b>	<b>Emotsional barqarorlik</b>	<b>Moslashuvchanlik</b>	<b>Stressni boshqarish</b>
Psixosomatika	0,35*	0,14	0,17
Obsessiv-kompulsivlik	0,08	0,12	0,33*
Depressiya	0,14	0,37*	0,12
Xavotir	0,39*	0,14	0,14
Fobiya	0,12	0,13	0,17
Agressivlik	0,16	0,31*	0,17

«Harbiy xizmatchi oilalarining psixologik holatini aniqlash» so‘rovnomasi hamda «Psixologik salomatlik omillarining namoyon bo‘lishi» metodikasi omillari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar natijalariga ko‘ra, «emotsional barqarorlik» omili «psixosomatika» ( $r=0,35$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda «xavotir» ( $r=0,39$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillari bilan, «moslashuvchanlik» omili «depressiya» ( $r=0,37$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda «agressivlik» ( $r=0,31$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillari bilan, «stressni boshqarish» omili «obsessiv-kompulsivlik» ( $r=0,33$ ;  $p\leq 0,05$ ) omili bilan ijobiy aloqadorlik qayd etildi.

Harbiy xizmatchilar oilalarining psixologik holatini kompleks tahlil qilish jarayonida aniqlangan «emotsional barqarorlik» va «psixosomatika» omillari o‘rtasidagi salbiy korrelyatsiya ( $r=0,35$ ;  $p\leq 0,05$ ) psixologik xizmat mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini asoslovchi muhim empirik dalil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur bog‘liqlik ruhiy muvozanat darajasi oshgani sari somatik shikoyatlarning kamayishi hamda oilaviy tizimda psixogigiyenik muhitning mustahkamlanishi bilan uzviy aloqador ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur bog‘liqlik psixologik xizmatni faqat konsultativ yo‘nalish bilan cheklamasdan, balki profilaktik va reabilitatsion komponentlarni ham integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi. Chunki, affektiv zo‘riqishlar vaqtida korreksion aralashuv amalga oshirilmasa, ular psixosomatik reaksiyalar orqali jismoniy salomatlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Emotsional barqarorlikning yetarli darajada shakllanganligi oilaviy tizim doirasida stressorlarni konstruktiv qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa psixologik xizmat mexanizmlarini erta diagnostika va individual kuzatuv asosida tashkil etish samaradorligini oshiradi. Psixosomatik simptomlarning kamayishi harbiy xizmatchilar oilalariga ko‘rsatiladigan psixologik xizmatning sog‘lomlashtiruvchi funksiyasini kuchaytiradi. Natijada ruhiy va jismoniy salomatlik o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir tizimli xarakter kasb etadi. Shunday qilib, mazkur korrelyatsion natija psixologik xizmat mexanizmlarini takomillashtirishda emotsional barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus treninglar va psixoprofilaktik dasturlarni joriy etish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

«Emotsional barqarorlik» va «xavotir» omillari o‘rtasidagi salbiy korrelyatsiya ( $r=0,39$ ;  $p\leq 0,05$ ) psixologik xizmat tizimini differensiallashtirish zarurligini ko‘rsatadi hamda affektiv muvozanati yuqori bo‘lgan harbiy xizmatchilar oilalarida xavotir reaksiyalarining intensivligi pasayishini tasdiqlaydi. Mazkur bog‘lanish psixologik xizmat doirasida emotsional regulyatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish xavotir darajasini pasaytirishga xizmat qilishini hamda shu orqali favqulodda vaziyatlarda ongli qaror qabul qilish salohiyati mustahkamlanishini anglatadi. Xavotirning yuqori darajasi oilaviy kommunikatsiyada zo‘riqish va beqarorlikni yuzaga keltirishi mumkinligi sababli, psixologik xizmat mexanizmlarida stressni boshqarish hamda relaksatsion texnikalarni tizimli ravishda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Emotsional barqarorlikning ortishi bilan birga xavotir darajasining kamayishi xizmat samaradorligiga bilvosita ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ruhiy muvozanat faoliyat barqarorligini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, psixologik xizmatni

takomillashtirish jarayonida xavotir profilini aniqlash hamda individual korreksion dasturlar ishlab chiqish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.

«Moslashuvchanlik» va «depressiya» omillari oʻrtasidagi salbiy korrelyatsiya ( $r=0,37$ ;  $p\leq 0,05$ ) harbiy xizmatchilar oilalari bilan ishlashda psixologik xizmat mexanizmlarini rivojlantirishning muhim yoʻnalishlaridan birini belgilaydi, chunki oʻzgaruvchan sharoitlarga adaptiv javob bera oladigan harbiy xizmatchilar oilalarida depressiv simptomatika kamroq namoyon boʻladi. Moslashuvchanlikning yuqori darajasi shaxsning ichki resurslarini safarbar etish qobiliyatini kengaytirib, ruhiy tushkunlikka qarshi himoya omili sifatida namoyon boʻladi. Mazkur bogʻlanish psixologik xizmat doirasida kognitiv qayta qurish, optimistik tafakkurni shakllantirish hamda ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini koʻrsatadi. Depressiv reaksiyalarning kamayishi oilaviy tizim barqarorligini mustahkamlab, jamoaviy faoliyat samaradorligiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Shu bois, psixologik xizmat mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida moslashuvchanlikni rivojlantiruvchi trening modullarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

«Moslashuvchanlik» va «agressivlik» omillari oʻrtasidagi salbiy korrelyatsiya ( $r=0,31$ ;  $p\leq 0,05$ ) psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik ahamiyatini kengroq talqin qilish imkonini beradi, chunki moslashuvchanlik darajasi oshgani sari agressiv reaksiyalar chastotasi kamayadi. Mazkur bogʻlanish konstruktiv muloqot strategiyalarining shakllanishi bilan izohlanib, oilaviy hamda xizmat jarayonidagi nizoli vaziyatlarni murosaviy hal etish uchun zamin yaratadi. Agressivlikning pasayishi ijtimoiy muhitda oʻzaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlab, psixologik xizmat mexanizmlarini profilaktik yoʻnalishda rivojlantirish zaruratini anglatadi. Moslashuvchanlikni rivojlantirish orqali destruktiv xatti-harakatlarning oldini olish mumkinligi empirik jihatdan tasdiqlanadi. Shu bois, psixologik xizmat tizimida konfliktologik treninglar hamda emotsional intellektni rivojlantirish dasturlarini keng joriy etish mexanizm samaradorligini oshiradi.

«Stressni boshqarish» va «obsessiv-kompulsivlik» omillari oʻrtasidagi salbiy korrelyatsiya ( $r=0,33$ ;  $p\leq 0,05$ ) psixologik xizmat mexanizmlarini takomillashtirishda regulyativ komponentning ustuvorligini belgilaydi, chunki stressni ongli ravishda boshqara oladigan shaxslar majburiy takroriy fikr va harakatlarga kamroq moyillik bildiradi. Mazkur bogʻlanish stressni konstruktiv qayta ishlash koʻnikmalari rivojlangan sari nevrotik simptomatikaning susayishini tasdiqlaydi. Obsessiv-kompulsiv alomatlarining kamayishi faoliyatni ratsional tashkil etish imkoniyatini kengaytirib, xizmat jarayonida tezkor va aniq qaror qabul qilish uchun zamin yaratadi. Stressni boshqarish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan sharoitda esa ortiqcha tashvish va majburiy xatti-harakatlarning kuchayishi ehtimoli ortadi. Shu bois, psixologik xizmat koʻrsatish tizimini takomillashtirish jarayonida stress-menejment dasturlari, relaksatsion texnikalar hamda kognitiv-xulqiy intervensiyalarni tizimli ravishda integratsiya qilish ilmiy asoslangan strategik yoʻnalish sifatida belgilanadi.

«Harbiy xizmatchi oilalarining psixologik holatini aniqlash» soʻrovnomasi hamda «Psixologik salomatlik omillarining namoyon boʻlishi» metodikasi omillari oʻrtasidagi korrelyatsion bogʻlanishlar natijalariga koʻra, «emotsional barqarorlik»

omili «emotsional holatlarda o‘zini-o‘zi nazorat qilish» ( $r=0,33$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda «faoliyatda o‘zini-o‘zi nazorat qilish» ( $r=0,32$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillari bilan, «moslashuvchanlik» omili «ijtimoiylashuvda o‘zini-o‘zi nazorat qilish» ( $r=0,39$ ;  $p\leq 0,05$ ) omili bilan, «stressni boshqarish» omili «faoliyatda o‘zini-o‘zi nazorat qilish» ( $r=0,35$ ;  $p\leq 0,05$ ) omili bilan ijobiy aloqadorlik qayd etildi.

### 3-jadval

**«Harbiy xizmatchi oilalarining psixologik holatini aniqlash»  
so‘rovnomasi hamda G.S.Nikiforov, V.K.Vasilev va S.V.Firsovalarning  
«Emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilishni namoyon bo‘lishini  
o‘rganish» metodikasi omillari o‘rtasidagi aloqadorlik (n=170)**

<b>Omillar</b>	<b>Emotsional barqarorlik</b>	<b>Moslashuvchanlik</b>	<b>Stressni boshqarish</b>
Emotsional holatlarda o‘zini-o‘zi nazorat qilish	0,33*	0,12	0,19
Faoliyatda o‘zini-o‘zi nazorat qilish	0,32*	0,11	0,35*
Ijtimoiylashuvda o‘zini-o‘zi nazorat qilish	0,15	0,39*	0,21

Harbiy xizmatchilar oilalariga psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish doirasida aniqlangan «emotsional barqarorlik» va «emotsional holatlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish» omillari o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsiya ( $r=0,33$ ;  $p\leq 0,05$ ) psixologik xizmat mexanizmlarida affektiv regulyatsiya komponentining ustuvor ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur bog‘lanish shuni ko‘rsatadiki, ruhiy muvozanati barqaror shakllangan shaxslar murakkab va xavfli vaziyatlarda hissiy reaksiyalarni impulsiv tarzda emas, balki ongli boshqaruv asosida muvofiqlashtira oladi. Shu bois, psixologik xizmatni takomillashtirish jarayonida emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan trening dasturlarini joriy etish zarur hisoblanadi, chunki affektiv nazorat darajasi oshgani sari favqulodda vaziyatlarda dezorganizatsiya ehtimoli kamayadi va faoliyat izchilligi ta‘minlanadi. Emotsional barqarorlikning yuqori darajasi stress omillarining subyektiv talqinini muvozanatlashtirib, xizmat samaradorligini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, harbiy xizmatchilar oilalariga psixologik xizmat ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida emotsional regulyatsiyani rivojlantiruvchi psixoprofilaktik modullarni tizimli ravishda integratsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

«Emotsional barqarorlik» va «faoliyatda o‘zini o‘zi nazorat qilish» omillari o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsiya ( $r=0,32$ ;  $p\leq 0,05$ ) psixologik xizmat mexanizmlarini operatsion faoliyat bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi, chunki affektiv jihatdan barqaror shaxslar xizmat jarayonida o‘z xatti-harakatlarini ichki intizom asosida muvofiqlashtirish salohiyatiga ega bo‘ladi. Mazkur empirik natija psixologik xizmatni rivojlantirish jarayonida xulqiy regulyatsiya va o‘zini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish muhim yo‘nalish ekanligini tasdiqlaydi. Faoliyat davomida o‘zini nazorat qila olish qobiliyati murakkab

sharoitlarda tezkor va asosli qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi. Emotsional muvozanat bilan xulqiy nazoratning uyg'unligi xizmat barqarorligini mustahkamlab, professional ishonchlilikni oshiradi. Shu bois, psixologik xizmat mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan psixologik tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan yo'nalish hisoblanadi.

«Moslashuvchanlik» va «ijtimoiylashuvda o'zini o'zi nazorat qilish» omillari o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiya ( $r=0,39$ ;  $p\leq 0,05$ ) psixologik xizmat mexanizmlarini ijtimoiy-psixologik integratsiya nuqtayi nazaridan boyitish zaruratini asoslaydi, chunki adaptiv salohiyati yuqori bo'lgan shaxslar jamoaviy munosabatlarni ongli ravishda muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur bog'lanish moslashuvchanlik darajasi ortgani sari ijtimoiy muloqot jarayonlarida o'zini nazorat qilish kompetensiyasining mustahkamlanishini tasdiqlaydi. Ijtimoiy muhitda hissiy muvozanatni saqlay oladigan harbiy xizmatchilar jamoa ichidagi ziddiyatlarni konstruktiv tarzda tartibga solib, umumiy maqsadlarga erishish jarayonini izchil tashkil etadi. Moslashuvchanlikning rivojlanganligi ijtimoiy rollar o'zgarishiga tezkor moslashishni ta'minlab, o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

«Stressni boshqarish» va «faoliyatda o'zini o'zi nazorat qilish» omillari o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiya ( $r=0,35$ ;  $p\leq 0,05$ ) psixologik xizmat mexanizmlarida stress-menejment yo'nalishining strategik ahamiyatini belgilaydi, chunki zo'riqish sharoitida ichki regulyativ resurslari shakllangan shaxslar o'z xatti-harakatlarini izchil va ongli ravishda boshqara oladi. Mazkur bog'lanish stressni konstruktiv qayta ishlash ko'nikmalari rivojlangan sari faoliyat davomida xulqiy nazoratning barqarorlashishini tasdiqlaydi. Stressga bardoshlilikning ortishi impulsiv reaksiyalar ehtimolini kamaytirib, murakkab vazifalarni bajarishda aniqlikni ta'minlaydi. Psixologik xizmat tizimida stressni boshqarish texnologiyalarini tizimli integratsiyalash faoliyat samaradorligini oshirish bilan birga shaxsning psixologik salomatligini mustahkamlaydi.

#### 4-jadval.

##### «Harbiy xizmatchi oilalarining psixologik holatini aniqlash» so'rovnomasi hamda R.Plutchik va G.Kellermanning «Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari» metodikasi omillari o'rtasidagi aloqadorlik (n=100)

Himoya mexanizmlari	Emotsional barqarorlik	Moslashuvchanlik	Stressni boshqarish
Inkor etish	0,32*	0,18	0,15
Siqib chiqarish	0,11	0,16	0,35*
Regressiya	0,17	0,34*	0,14
Kompensatsiya	0,41*	0,19	0,18
Proyeksiya	0,15	0,17	0,20
O'rnini almashtirish	0,18	0,19	0,21
Kognitivlik	0,38*	0,36*	0,13
Giperkompensatsiya	0,17	0,14	0,30*

«Harbiy xizmatchi oilalarining psixologik holatini aniqlash» so'rovnomasi hamda R.Plutchik va G.Kellermanning «Shaxsning psixologik himoya

mexanizmlari» metodikasi omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga ko'ra, «emotsional barqarorlik» omili «kompensatsiya» ( $r=0,41$ ;  $p\leq 0,05$ ), «kognitivlik» ( $r=0,38$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda «inkor etish» ( $r=0,32$ ;  $p\leq 0,05$ ) mexanizmlari bilan ijobiy aloqadorlikni namoyon etdi. Bu esa emotsional jihatdan barqaror harbiy oilalarda psixologik himoyaning nisbatan konstruktiv va ongli shakllari ustun ekanini anglatadi. «Moslashuvchanlik» omili «regressiya» ( $r=0,34$ ;  $p\leq 0,05$ ) va «kognitivlik» ( $r=0,36$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy bog'liqlikni ko'rsatib, vaziyatga mos ravishda turli himoya strategiyalaridan foydalanish tendensiyasi mavjudligini tasdiqladi. «Stressni boshqarish» omili esa «siqib chiqarish» ( $r=0,35$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda «giperkompensatsiya» ( $r=0,30$ ;  $p\leq 0,05$ ) mexanizmlari bilan ijobiy korrelyatsiyani namoyon etib, zo'riqish sharoitida ichki resurslarni safarbar etish va psixik zo'riqishni muayyan darajada kompensatsiya qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi.

«Emotsional barqarorlik»ning «inkor etish» bilan ijobiy bog'lanishi psixologik himoya mexanizmlarining murakkab tabiatini aks ettiradi ( $r=0,32$ ;  $p\leq 0,05$ ). Inkor etish ayrim vaziyatlarda vaqtinchalik regulyativ vosita sifatida namoyon bo'lib, barqaror shaxs salbiy axborotni darhol dramatizatsiya qilmasdan, muammoni bosqichma-bosqich qabul qilishga moyillik bildiradi. Bu esa affektiv portlashlarning oldini olib, psixik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Emotsional barqarorlik mavjud bo'lgan sharoitda inkor patologik shaklga o'tmaydi, balki shaxs real vaziyatni to'liq rad etmasdan, uni kechiktirilgan tahlilga yo'naltiradi. Bunday mexanizm haddan tashqari stressni kamaytirishga yordam beradi va uzoq muddatli zo'riqish sharoitida vaqtinchalik psixologik himoya sifatida namoyon bo'ladi. Emotsional muvozanat inkorni moslashuvchan vositaga aylantirib, harbiy xizmatchilar oilalarida xavfli vaziyatlarga adaptatsiya jarayonining samarali kechishini ta'minlaydi. Inkorning konstruktiv shakli ruhiy izdan chiqishning oldini olib, shaxsning ichki resurslarini saqlab qolishga xizmat qiladi hamda keyingi faol tahlil uchun imkon yaratadi. Emotsional barqarorlik inkor mexanizmini ongli nazorat ostida ushlab turishga yordam beradi, psixologik xizmat esa ushbu mexanizmning destruktiv shaklga o'tishining oldini oladi. Natijada mazkur bog'lanish adaptiv psixologik himoya tizimining muhim ko'rinishlaridan biri sifatida talqin etiladi.

«Emotsional barqarorlik» omilining «kompensatsiya» mexanizmi bilan ijobiy korrelyatsiyasi harbiy xizmatchilar oilalarida affektiv muvozanatning konstruktiv himoya strategiyalari bilan uzviy bog'liqligini anglatadi ( $r=0,41$ ;  $p\leq 0,05$ ). Emotsional jihatdan barqaror shaxslar ichki zo'riqishlarni to'g'ridan-to'g'ri destruktiv shaklda namoyon etmasdan, salbiy tajribani ijtimoiy maqbul faoliyatga yo'naltirishga moyillik bildiradi. Kompensatsiya mexanizmi shaxsning zaif jihatlarini boshqa kuchli tomonlari orqali muvozanatlashtirishni ta'minlab, psixik barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Emotsional barqarorlik mavjud sharoitda kompensator strategiyalar ongli ravishda shakllanib, shaxs ichki diskomfortni tashqi samaradorlik orqali kamaytirishga intiladi. Bu esa oilaviy tizimda konstruktiv xulq-atvorni mustahkamlab, affektiv muvozanat asosida kompensatsiyani nazoratli tarzda amalga oshirish imkonini beradi. Zo'riqishli vaziyatlarda psixik energiyaning salbiy reaksiyalarga emas, balki foydali faoliyatga yo'naltirilishi psixologik resurslarning

safarbar etilganini ko'rsatadi. Mazkur bog'lanish psixologik xizmat samaradorligini ham tasdiqlaydi, chunki xizmat jarayonida konstruktiv himoya shakllari rivojlantiriladi va kompensatsiya shaxsiy o'sish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Emotsional barqarorlik ushbu mexanizmni patologik emas, balki adaptiv shaklda ushlab turib, harbiy xizmatchilar oilalarida ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi. Natijada emotsional barqarorlik va kompensatsiya o'rtasidagi bog'lanish adaptiv psixologik himoya tizimining muhim ko'rinishi sifatida talqin etiladi.

